

NAVOIY VILOYATIDA MADANIYAT



Madaniyat – inson faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat insoniyat yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. "Madaniyat" atamasi san'at, badiiy tasvir, teatr, kinomatografiya, fan va ma'naviy tizimlarni o'z ichiga oladi.


O'zbekiston madaniyati Sharqning eng yorqin va o'ziga xos madaniyatlaridan biridir. U ming yillar davomida shakllanib, zamonaviy O'zbekiston hududida turli vaqtarda yashagan xalqlarning urf-odatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Buyuk ipak yo'li xalqlar madaniyati, ularning urf-odatlari va san'atining birlashuviga hissa qo'shgan.

O'zbekiston madaniyati – teatrlar, muzeylar, kutubxonalar, kinoteatrlar, sirklar, konsert zallari, madaniyat va istirohat bog'lari, botanika bog'lari, hayvonot bog'lari, madaniyat va aholi dam olish markazlari, madaniy meros ob'ektlari va boshqa.


NAVOIY VILOYATIDAGI KUTUBXONALAR FAOLIYATI



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 7- iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4354-sonli qarori 4-bandiga asosan, viloyat kutubxona markazi qoshida tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlari tashkil etildi. Shuningdek, umumta'lif maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari qoshida faoliyat ko'rsatayotgan barcha axborot-resurs markazlari faoliyati tugatilib, barcha tugatilayotgan axborot-resurs markazlarining kitob fondlari va shtat birliklarini yangidan tashkil qilinayotgan tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlariga berildi.



2019- yilda Navoiy viloyatida kutubxona muassasalari soni, %




- axborot-kutubxona markazlari
- oliy ta'lim muassasalarida
- boshqa tashkilot va muassasalarda
- ko'zi ojizlar uchun kutubxonalar
- boshqa kutubxonalar


Navoiy viloyatida 19 ta kutubxonalar faoliyat yuritadi. Shundan, viloyat kutubxona markazi va 10 ta tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlari, Navoiy viloyati xalq ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi axborot resurs markazi, Navoiy viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti axborot resurs markazi, Navoiy viloyati hokimligi madaniyat boshqarmasi viloyat ko'zi ojizlar maxsus kutubxonasi, oliy ta'lim muassasalarida 2 ta axborot resurs markazlari, O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligining Navoiy akademik litseyi axborot resurs markazi hamda Navoiy kon-metallurgiya kombinati xodimlari kasaba uyushmasiga qarashli 3 ta kutubxonalar faoliyat yuritib kelmoqda.

**2019- yilda Navoiya viloyatida kutubxona muassasalari faoliyatining
asosiy ko'rsatkichlari (AKM va ARM)**


	Muassasalar soni, <i>birlik</i>	Kutubxona fondi, <i>nusxa</i>	Foydalanuv- chilar soni, <i>kishi</i>	Foydalanishga berilgan kitob va jurnallar, <i>nusxa</i>
Navoiy viloyati	19	1 136 785	137 185	1 609 147
<i>shaharlar:</i>				
Navoiy	5	597 060	48 275	815 276
Zarafshon	2	67 934	12 748	108 715
<i>tumanlar:</i>				
Konimex	1	53 641	4 071	67 827
Karmana	4	102 015	41 301	201 048
Qiziltepa	1	43 855	8 671	33 337
Navbahor	1	28 491	4 846	72 338
Nurota	1	80 440	6 547	150 640
Tomdi	1	11 599	1 396	11 682
Uchquduq	2	71 550	6 310	76 934
Xatirchi	1	80 200	3 020	71 350



2019- yilda kutubxona muassasalari foydalanuvchilari soni, ming kishi



2019- yilda tillar bo'yicha kutubxona muassasalari kitob fondi, ming nusxa




NAVOIY VILOYATIDA MUZEYLAR

Navoiy viloyatida muzeylar soni 5 tani, ulardan filiallari soni esa 2 tani tashkil etadi. 2019-yilda muzeylarda tashrif buyuruvchilar soni 39,2 ming kishini tashkil etdi. Tashrif buyuruvchilarning 27,8 ming (70,9%) nafari o'quvchi va talabalardan iborat. Muzeylarda 3 ta ma'ruzalar o'qilgan. Muzeylar tomonidan jami 165 ta ko'rgazmalar, 2 165 ta ekskursiyalar tashkil qilingan. Ekskursiya tarzida 22,3 ming kishi qatnagan.

Eksponatlar turi bo'yicha muzeylar fondi, *birlik*

	Yil oxiriga asosiy fond eksponatlari soni	Ulardan hisobot yilida namoyish etilganlari	Noyob eksponatlar	Tiklash talab qilinadiganlar
JAMI	17 798	5 297	198	282
<i>shu jumladan:</i>				
Rassomlik	187	93	1	4
Grafika	53	10	-	2
Haykaltaroshlik buyumlari	25	17	1	1
Amaliy san'at buyumlari	1 120	916	26	51
Numizmatika buyumlari	2 756	272	65	93
Arxeologiya buyumlari	1 321	415	72	46
Maishiy va etnografiya buyumlar	1 500	809	30	33
Suratlar	3 743	695	-	18
Hujjatlar	1 483	293	3	25
Boshqalar	5 610	1 777	-	9

2019- yilda muzey fondlari eksponat turlari bo'yicha, %



- Rassomlik ● Arxeologiya buyumlari ● Numizmatika buyumlari
- Amaliy san'at buyumlari ● Haykaltaroshlik buyumlari ● Suratlar
- Maishiy etnografiya buyumlari ● Grafika ● Hujjatlar ● Boshqalar

Muzeylarda turli eksponatlar mavjud. Muzey eksponat fondlari 17 798 tani tashkil etadi, shulardan: 25 ta haykaltaroshlik buyumlari, 187 ta rassomlik, 2 756 ta numizmatika, 1 500 ta maishiy va etnografiya buyumlari, 53 ta grafika, 1 120 ta amaliy san'at buyumlari, 3 743 ta suratlar, 1 321 ta arxeologiya buyumlari, 1 483 ta hujjatlar, 5 610 ta boshqa eksponatlar.

NAVOIY VILOYATIDA KONSERT TASHKILOTLARI FAOLIYATI



2019- yilda konsert tashkilotlari soni 2 tani tashkil etdi. Konsert tashkilotlari tomonidan 143 ta konsertlar tashkil etilgan, ularda 56,5 ming kishi tinglovchiga xizmat ko'rsatilgan. Konsertlardan tushgan mablag'lar 335 210,5 ming so'mni tashkil etadi.

Konsert tashkilotlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

	2017- y.	2018- y.	2019- y.
Konsert tashkilotlari soni, <i>birlik</i>	1	2	2
Konsertlar soni, <i>birlik</i>	102	207	143
Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar, <i>ming kishi</i>	51,0	106,4	56,5

NAVOIY VILOYATIDA MADANIYAT VA ISTIROHAT BOG'LARI

2019- yilda viloyatimizda madaniyat va istirohat bog'lari soni 10 tani tashkil etdi, umumiy maydoni 82,9 gektardan iborat. Har bir shahar va tumanlarda madaniyat va istirohat bog'lari mavjud bo'lib, ulardan Navoiy shahrida joylashgan "Alisher Navoiy" nomli markaziy madaniyat va istirohat bog'i 35,6 gektar maydonni egallaydi. Madaniyat va istirohat bog'larida dam olish ob'ektlari soni – 50 ta, attraksionlar soni 94 tani tashkil etadi. 2019- yilda jami qatnovlar soni 484,2 ming kishini tashkil etib, ulardan 331,3 ming kishini bolalar tashkil etadi.

2019- yilda Navoiy viloyatida madaniyat va istirohat bog'larining asosiy ko'rsatkichlari, *birlik*

	Madaniyat va istirohat bog'lari soni	Dam olish ob'ektlari soni	Attraksionlar soni
Navoiy viloyati	10	50	94
shaharlar:			
Navoiy	1	22	30
Zarafshon	1	3	11
tumanlar:			
Konimex	1	1	-
Qiziltepa	1	6	5
Navbahor	1	1	2
Karmana	1	3	16
Nurota	1	6	-
Tomdi	1	-	-
Ushquduq	1	-	6
Xatirchi	1	8	24

NAVOIY VILOYATIDA MADANIYAT VA AHOLO DAM OLİSH MARKAZLARI

Madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatiga ommaviy madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari, mavzuli va adabiy-badiiy kechalar, teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari, konsertlar tashkil etish kiradi.

**2019- yilda madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatining
asosiy ko'rsatkichlari**

	Muassasalarning umumiyl soni, <i>birlik</i>	Jami o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar, <i>birlik</i>	Madaniy-ma'rifiy tadbirlarlarda ishtirok etganlar, <i>ming kishi</i>
Navoiy viloyati	32	3 325	982,1
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	1	350	139,8
Zarafshon	1	186	70,7
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	3	209	48,0
Qiziltepa	5	294	135,7
Navbahor	6	390	98,3
Karmana	5	421	71,2
Nurota	3	450	230,0
Tomdi	1	147	23,3
Uchquduq	1	165	87,3
Xatirchi	6	713	77,8

Jami o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar soni 3 325 tani tashkil etdi, ulardan ommaviy madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari 32,8 % (1 089 ta), mavzuli va adabiy-badiiy kechalar 29,4 % (977 ta), teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari 12,2 % (407 ta), konsertlar 25,6 %ni (852 ta) tashkil etadi. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etganlar 982,1 ming kishini tashkil etdi.

***Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi***